E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

INGLIZ TILI TERMINOLOGIYASIGA OID AYRIM MORFOLOGIK JIHATLAR TAHLILI

Arzieva Dilfuza Tashlanovna
Andijon davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi sinonimik terminlarning tahlili misollar orqali kursatilgan. Ingliz ro‘yxatida grafik sinonimlarni ajratib ko‘rsatish sof shartli holat deb hisoblanadi.
Kalit so‘zlar: Variativlik, absolyut sinonim, kompozit, metod.

KIRISH

Ayrim tadqiqotchilar sinonimiya va variantlikni farqlaydi va variantlikni sinonimiyaning bir turi sifatida qarash mumkin emas, deb hisoblaydi. Lekin hatto bir harfi bilan farqlanadigan leksemalar harxil mustaqil terminlar bo‘lib, absolyut sinonimlar belgilariga mos bo‘ladi, chunki ular bir tushunchani nomlash uchun xizmat qiladi.

Absolyut sinonimlar – aynan teng ma’noli sinonimlar; **shartli sinonimlar** – o‘xshash ma’noli sinonimlar (ma’lum sharoitlarda absolyut sinonimlar sifatida qo‘llanadi)

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

S.V.Grinev-Grinevich absolyut sinonimlarni birinchi navbatda *variantlarga* – termin shaklining o‘zgarishi orqali hosil qilingan absolyut sinonimlar, va *dubletlarga* – turli shakli bo‘lgan absolyut sinonimlarga ajratadi.

Tadqiq etilgan ingliz terminologik guruhida terminlar variativligining quyidagi misollari aniqlangan:

1. door-keeper – doorkeeper; time-table – timetable; custom-house – customhouse; eco-tourism – ecotourism – *ushbu terminlar grafik variantlarga kiradi, chunki ular o‘zining grafik ko‘rinishi bilan, ya’ni yozilishi bilan farqlanadi.*

Ingliz ro‘yxatida grafik sinonimlarni ajratib ko‘rsatish sof shartli holat deb hisoblanishi mumkin, chunki zamonaviy ingliz tilida ikki xil (ba’zan uch xil) yozilish shakliga ega bo‘lgan nihoyatda ko‘p so‘zlar bor, va bu oddiy holat deb qaraladi.

2. *campground – campsite; itinerancy – itineration* kabi faqat so‘z yasovchi affikslari bilan farqlanadigan terminlar juftlari, so‘z yasovchi variantlari soniga kiritilgan.

3. *chartered flight – charter flight* terminlari faqat so‘z o‘zgartuvchi affiks bilan farqlanadigan morfologik variantlarga misol bo‘ladi.

4. Sintaksik variantlar – sintaktik yasalishi modeli (so‘zlarning tartibi va ularning o‘rtasidagi munosabat) bilan ajralib turgan so‘z birikmalaridan iborat bo‘lgan terminlarning variantlari: *package tour – tour package; round-the-world trip – world round trip.*

5. *Kompozit variantlar - so‘zlarni qo‘shish yoki ko‘p komponentli termin asoslarini qo‘shish bilan hosil qilingan morfologik-sintaktik variantlar:* air terminal- airterminal; round trip ticket – round-trip ticket; return ticket – return-ticket; air hostess - air-hostess; guide interpreter - guide-interpreter; jeep safari – jeep-safari; baggage room – baggage-room; baggage man – baggage- man; boarding house - boarding-house; round trip – round-trip; half pension – half-pension; guide book – guidebook; self drive tour – self-drive tour; sex tour – sex- tour; custom house – custom-house; custom house – customhouse; tour leader – tourleader; tour operator – touroperator.

Polileksemali terminning ichida hatto bitta termin elementida kompozitsiya jarayoni aniqlangan bo‘lsa ham, sinonimlarni kompozit variantlarga kiritish maqsadga muvofiq bo‘lishini qayd etish lozim.

6. Elliptik variantlar, ya’ni ko‘p komponentli terminning ma’nosi o‘zgartirilmagan

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

holda, uni ellipsis (qisqartirish) orqali hosil qilingan variantlari ham morfologik-sintaktik variantlarga misol bo‘la oladi: *Pullman coach - Pullman; Pullman coach* – coach; air terminal – terminal; single ticket - single; return ticket – return; air hostess – hostess; tour voucher – voucher; lounge pavilion – lounge; departure lounge – lounge; all-inclusive tour – all-in; cruise liner – liner; double room – double; duplex apartment – duplex; single room

– single; triple room – triple; public house - pub; full pension - pension; Full American Plan – American Plan; return trip - return; charter flight – charter; safari tour – safari; buffet style – buffet; tour leader – leader; all-expense sightseeing tour

– sightseeing tour; tour guide – guide; express train – express.

7. *boat hotel – boatel* kabi terminlar abbreviatura – qisqartmavariantlarga, ya’ni ko‘p komponentli terminning so‘zlari qismlarini qo‘shish orqali hosil qilingan variantlarga kiritilgan.

8. *Bir so‘zli to‘liq variantning oxiridagi qismini kesib tashlash orqali hosil qilingan kesilgan varianti ham, qisqa variantning bir turi hisoblanadi, masalan:* cancellation – canx; return-ticket– return; air-hostess – hostess; railroad – road; railway – rail; all-inclusive tour – inclusive tour; camping - camp; luncheon – lunch; passenger – pax; familiarization trip – fam trip; tourleader – leader.

XULOSA VA MUNOZARA

Variantlarni absolyut sinonimlarning, ya’ni bir xil ma’noga ega bo‘lgan sinonimlarning ikkita bazaviy turidan biri deb hisoblash mumkin. Dubletlar esa ularning ikkinchi turi hisoblanadi. Agar variantlarni termin shaklining o‘zgarishi natijasida olingan absolyut sinonimlar, deb qaraydigan bo‘lsak, dubletlar esa turlicha shaklga ega bo‘lgan absolyut sinonimlar kabi ta’riflanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Jonson, K. E. Ijtimoiy-madaniy burilish va ikkinchi til o'qituvchilari ta'limining muammolari. // TESOL Quarterly., - London., 2006: - 235.
2. Xarmer J. Ingliz tilini o'qitish amaliyoti. - London., 2001: - 64.
3. Jalolov J. Chet tilli o‘qitish metodikasi. - Toshkent., 2012: - 48.
4. Islamov R.S., Resenchuk A.A., Perevalova A.A. "Geologiya", "Biologiya", "Ekologiya va tabiatdan foydalanish" yo'nalishlari bo'yicha talabalarga ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish tajribasidan // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2018 yil - 6-son;
5. Mixalevskaya I.I. Til universitetlari talabalarining ikki tilli uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosi to'g'risida // Funktsional tadqiqotlar. - M., 1998. - 6-son. - S. 118-121.

WORDLY
KNOWLEDGE